

TURLI TIZIMLI TILLAR SATHLARIDA PARALLEL GRADUONIMIK
MUNOSABATLAR

Shirinova Nilufar Djabbarovna,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, filol.f.n.

E-mail: nilufar.shirinova@mail.ruDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843659>

Annotatsiya. Turli tizimli tillarda parallelizm va parallel gradual aloqalarni o'rganish uchun ularni sathlararo tahlil etish orqali muayyan lisoniy ma'no yoki kategoriya(lar)ni farqlash, ajratish uchun kerakli tadqiq usullariga ega bo'lish mumkin. Parallelizmning inparallel (bir til doirasida o'zaro o'xshashlik va umumiyliklar), interparallelizm (turli tillar doirasida aniqlanadigan integratsion xususiyatlar) turlari mavjudligi bizning mualliflik izlanishlarimiz mahsuli bo'lib, mazkur maqolada turli tizimli tillar sathlarida, xususan, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda parallel graduonimik munosabatlar izchil tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: darajalanish/graduonimiya, gradual qator, proksimal graduonim, distal graduonim, klouz graduonim, parallelizm, inparallelizm, interparallelizm.

Аннотация. Для изучения параллелизма и параллельных градуальных связей в языках различных систем посредством их межуровневого анализа можно овладеть необходимыми исследовательскими методами для разграничения и выделения определённого языкового значения или категории (категорий). Выделение типов параллелизма — инпараллелизма (взаимные сходства и общности в рамках одного языка) и интерпараллелизма (интегративные особенности, выявляемые в пределах разных языков) — является результатом наших авторских исследований. В данной статье последовательно исследуются параллельные градуонимические отношения на различных уровнях языков разных систем, в частности на лексическом, морфологическом и синтаксическом уровнях.

Ключевые слова: градуонимия, градуонимический ряд, проксимальный градуоним, дистальный градуоним, клоузный градуоним, параллелизм, инпараллелизм, интерпараллелизм.

Annotation. In order to study parallelism and parallel gradational relations in languages of different systems, through their interlevel analysis it is possible to acquire the necessary research methods for distinguishing and identifying specific linguistic meanings or categories. The identification of types of parallelism – inparallelism (mutual similarities and common features within a single language) and interparallelism (integrative features identified across different languages) – is the result of our original research. This article consistently examines parallel graduonymic relations at various levels of languages of different systems, particularly at the lexical, morphological, and syntactic levels.

Key words: graduonymy, gradual line, proximal graduonym, distal graduonym, close graduonym, parallelism, inparallelism, interparallelism.

Kirish. Parallelizm (grekcha *parallelos* – yonma-yon turuvchi) – fanda o'zaro solishtirilayotgan ikki predmet/hodisaning umumiy va o'xshash tomon(lar)i, to'liq yoki noto'liq (qisman) takrori sifatida ma'lum bo'lib, tilda lisoniy (lingvistik) parallelizm shaklida ro'yobga chiqadi [6; 12; 13]. Turli tizimli tillarda parallel (inparallel va, ayniqsa, interparallel) gradual aloqalarni o'rganish uchun ularni sathlararo tahlil etish orqali biz muayyan lisoniy ma'no yoki kategoriya(lar)ni farqlash, ajratish uchun kerakli tadqiq usullariga ega bo'la olamiz. Buning uchun aynan leksik, morfologik va sintaktik inparallel va interparallel graduonimiya xususida to'xtalmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, fanda lisoniy parallelizm hodisasi ko'proq nazmiy adabiyotda, u ham bo'lsa, takror, anafora, qofiya va radiflarning parallel (muqobil) ishlatilishi yo'nalishida o'rganilganlik bilan cheklangan bo'lib, sof lingvistik (lisoniy ma'nolarning ifodalanishida til sathlariaro va/yoki til birliklariaro parallelizm) yo'sinda kam o'rganilgan. Aslida lingvistik parallelizmning tilning struktur sathlarida voqelanishida yuzaga keladigan (hatto) stilistik, konnotativ funksiyasini ham inkor etib bo'lmaydi, chunki har qanday parallel model, konstruksiya, tuzilma va hatto birlik (element, unsur) – xoh so'zlashuv yoki ilmiy, xoh poetik uslub bo'lsin, asosiy denotativ ma'no asosiga qurilgan intensifikatsiyani namoyish etadi – bu holat birin-ketinlik bilan mikrosathdan makrosathga qarab o'sishi va shu orqali turli lisoniy va nutqiy voqelanishlarni aks ettirishi mumkin [11]. Tilning nazmiy ifodasini namoyon etuvchi adabiy uslubda parallelizm – lirik g'oyani yetkazish jarayonida fonetik, morfologik va sintaktik birliklar orasidagi o'zaro assimilyatsiyani ifodalovchi yo'lga aylangan: bu A.Veselovskiy, G.Leech, M.Short kabi olimlarning qator ishlarida keltirilgan *tovushlar parallelizmi* (tovushlar va bo'g'inlar o'rtasida), leksik parallelizm (takroriy so'z va iboralar vositasida) yoki *sintaktik parallelizm* (so'z birikmalari va gap orasidagi) bo'lishi ma'lum [2; 7; 8; 10]. Parallelizmning inparallel (bir til doirasida o'zaro o'xshashlik va umumiyliklar), interparallelizm (turli tillar doirasida aniqlanadigan integratsion xususiyatlar) turlarga ajratilishi g'oyalari esa bizning qator mualliflik tadqiqotlarimizda ilgari surilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Interparallelizm hodisasi – tillardagi imkoniyat va funksiyalarning to'liq va/yoki qisman takrorlanishi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur ikki sintaktik graduonimik qatorlarning har ikkala tilda qisman uyg'unlashishini ko'rishimiz mumkin: bosh bo'laklar tarkibi va mavqeyiga ko'ra ingliz tili ikki tarkiblilik (subject, predicate), o'zbek tili esa bir tarkiblilik (kesim)ni va shunga analogik tarzda graduonimik siradagi distal graduonimlar tarkibi (ingliz tilida ega ~ aniqlovchi, o'zbek tilida esa kesim ~ aniqlovchi) disgarmoniyani namoyon etsa, klouz a'zolar (ikkinchi darajali bo'laklar)ning tartiblanishi jihatdan garmoniyani, boshqacha qilib aytganda, interparallelizmi ifodalay oladi. Demak, o'z-o'zidan, tillararo qisman interparallel konstruksiyalar sintaktik sathda ham gradual tarzda rivojlanishi mumkinligi ayonlashadi [9].

Albatta, har bir graduonimik qatorda bo'lgani kabi gradual inparallel bog'lanishlarda ham aloqadorlikning o'sishi “teskari aloqa” yo'nalishida bo'ladi – birliklarning muayyan sema yoki vazifa asosida qatorlashishi “...ma'noning kuchayishi va aksincha” tamoyili bo'yicha amalga oshadi: “son ma'nosini ifodalovchi birliklar unumdorlik darajasining oshishi va aksincha”; “son ma'nosini ifodalovchi birliklar unumdorlik darajasining kamayishi va aksincha” kabi. Bunda darajalanish qatorining va umuman, miqdoriy o'zgarishlarning sifatiy o'zgarishlarga o'tishi qonunining in'ikosi kabi ma'noning kuchayishi/oshishi/intensivlashishi unga zid sanalgan ma'no yoki funksiyaning

pasayishi/kamayishi/neytrallasishi hisobiga bo‘ladi (bu parallel vositalarda unumdorlikning oshishi kamunumdorlik yoki unumsizlikning kamayishi (va aksincha) hisobigadir). Bu esa, darajalanish munosabatlarining, xususan, gradual parallel munosabatlarning yana bir muhim tamoyili – **til muayyan ma’noni yoki vazifani ifodalashga kirishar ekan, ma’lum bir usul va vositalarni (til maqsadi, sharoiti, imkoniyatlari va vaziyatga ko‘ra) neytrallashtirish evaziga boshqa bir(lar)ini dominantlash yo‘lidan borishi** – reallashayotganidan dalolat beradi.

Tahlillar va natijalar. 1. Leksik sathda. Leksik sathdagi darajalanish *leksik (ma’noviy) darajalanish* yoki *leksik graduonimiya* sifatida so‘zlarning ma’nosida o‘xshash bir belgining miqdori oz-ko‘pligiga ko‘ra qarama-qarshi qo‘yilishi ekan [1], unda ham rang-barang inparallel hamda interparallel munosabatlarni ko‘ramiz (3-ilova):

uzb. *ninni* → *chaqaloq* → *go‘dak* → *bola* → *o‘smir* → *yigit* → *chol* → *qariya*...

Avvalambor, yosh semasiga ko‘ra darajalanuvchi mazkur inparallel graduonimik qatorida biz *ninni*, *qariya* kabi distal graduonimlarni hamda *ninni* → *chaqaloq*, *chaqaloq* → *go‘dak*, *go‘dak* → *bola*, *bola* → *o‘smir*, *o‘smir* → *yigit*, *yigit* → *chol*, *chol* → *qariya* kabi klouz oppozitsiyalarni ajratish mumkin bo‘ladi. Xuddi shunday aloqadorlikni rus, nemis va ingliz tillarida ham kuzatish imkoniyati mavjudki, bu yosh semasiga ko‘ra leksik darajalanishning miqdoriy va sifatiy jihatdan ham interparallelizmga uchrashidan dalolat beradi:

russ. *младенец* → *сосун* → *малыш* → *ребенок* → *подросток* → *юноша* → ... *старец*;

nem. *das Neugeborene* → *der Säugling* → *das Baby* → *das Kind* → *das Mädchen/der Junge* → *der Mann/die Alte/die Alte* → *der Greis/die Greisin*;


ing. *infant* → *baby* → *child* → *laddie/little girl* → *teenager* → *youth* → *lad/girl* → *young man/young woman* → *old man/old woman*...

qatorida so‘zlardagi interparallel semantik darajalanishni kuzatishimiz mumkin.

Lekin agar *ninni* → ... *qariya*; *младенец* → ... *старец*; *das Neugeborene* → ... *der Greis/die Greisin*; *infant* → ... *old man/old woman*... makrograduonimik qatorlarni konnotativ semalardagi darajalanish misolida “uslubiy betaraflik” belgisiga ko‘ra *ninni* → *chaqaloq* → *go‘dak* → *bola*; *младенец* → *сосун* → *малыш* → *ребенок*; *das Neugeborene* → *der Säugling* → *das Baby* → *das Kind*; *infant* → *baby* → *child* → *laddie/little girl* singari mikrograduonimik qatorlarga ajratadigan va undagi graduonimlar sifatini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi o‘zgarishlarni kuzatamiz [3]: *ninni* → *chaqaloq* → *go‘dak* → *bola* mikrozanjirida *bola*, *младенец* → *сосун* → *малыш* → *ребенок* sirasida *ребенок*, *das Neugeborene* → *der Säugling* → *das Baby* → *das Kind* qatorida *das Kind*, *infant* → *baby* → *child* → *laddie/little girl* zanjirida esa *child* so‘zi ham semantik, ham stilistik jihatdan neytral so‘z sifatida namoyon bo‘lmoqda, shunga ko‘ra *go‘dak*, *малыш*, *das Baby*, *baby*, *laddie/little girl* lug‘aviy birliklari proksimal a‘zo mavqeyini egallaydi.

Albatta, distal graduonimlarning ifodasi ham o'zgaradi, ya'ni endilikda distal graduonimiya *ninni* → ... *qariya*; *младенец* → ... *старец*; *das Neugeborene* → ... *der Greis/die Greisin*; *infant* → ... *old man/old woman*... shaklidamas, *ninni* → *bola*, *младенец* → *ребенок*, *das Neugeborene* → *das Kind*, *infant* → *laddie/little girl* ko'rinishida mavjlanadi. Ayrim hollarda distal graduonimiya bilan dominantlikning muvofiqlashuvi, kesishishini ko'ramiz (*bola*, *ребенок*, *das Kind* kabilarda), bu ham qaysidir ma'noda tillararo umumiy, o'xshash bo'lgan hodisani, ya'ni interparallelizmni ifoda etadi.


Fikrimizning bevosita davomi sifatida quyidagi darajalanish qatorlariga murojaat qilaylik:



1.1-rasm.

Ingliz tilida "Intelligence" ("Zakovat") semasining o'sib borishiga ko'ra leksik inparallel darajalanish qatori

Xuddi shu zanjirni o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanib ham yaratish mumkinligi ko'zga tashlanadi:



1.2-rasm.

O'zbek tilida "Zakovat" semasining o'sib borishiga ko'ra leksik inparallel darajalanish qatori

Bunda ham yuqoridagi kabi jarayonni, ya'ni graduonimik qatorlarning interparallel sifatli manifestatsiyaga egaligini ko'ramiz: *clever* hamda *dono* so'zlari proksimal, *connoisseur*, *genius*; *aqli*, *daho* distal, *connoisseur ~ genius*, *aqli ~ daho* qatoridagi har bir a'zo klouz graduonimligini namoyish etadi. Demak, tillarning lug'aviy qatlami o'zining rang-barangligi, betakrorligi va individualligi bilan qanchalik farq qilmasin, ba'zi bir umumiy ma'no va maqsadlarni ifodalashdagi shakliy mushtaraklik (interparallelizm)ni namoyish etadi.

Leksik sathda in- hamda interparallel darajalanish munosabatlarini tahlil qilishda davom etarkanmiz, graduonimlarning distal, proksimal yoki klouz a'zo maqomida turli-tuman darajalanish qatorlarida ishtirok etishini kuzatamiz. O'z tadqiqotlarida o'zbek va ingliz tillaridagi fe'llarda graduonimik qatorlar tuzishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilgan Mazmuna Otaboyevaning "darajalanayotgan bir leksema yoki frazema birdan ortiq darajalanish qatorlarida ishtirok etishi mumkin"ligi, "ushbu leksema yoki frazemaning ishlatilish ko'lamiga ko'ra ma'nolarini inobatga olgan holda har xil graduonimik qatorlarning a'zosi bo'la olishi" haqidagi fikrlariga tayangan holda leksemalarning turlicha evrilishlari, ya'ni bir a'zo maqomidan boshqasiga o'tishi mumkinligini taxmin qilsa bo'ladi [4]. Jumladan, 1) *walk* → *stride* → *footslog* → *trek* → *hike*; 2) *budge* → *stir* → *transfer* → *move* → *walk* → *run* → *scamper* → *jog* → *trot* →

gallop → *rush* → *print* qatorlaridagi *walk* soʻzi “uzoq masofaga piyoda yurish boʻyicha darajalanish munosabatiga kirishgan” 1-qatorida distal, “harakat surʼatining ortib borishi boʻyicha rivojlanadigan” 2-sirada esa klouz aʼzo sifatida qatnashmoqda. Shunga oʻxshash munosabat *eshitmoq* → *bilmoq/xabardor boʻlmoq* → *oʻrganmoq* → *tekshirmoq* hamda *quloqqa chalinmoq* → *eshitmoq* → *tinglamoq* → *quloq solmoq* darajalanish zanjirlarida ham uchraydi: *eshitmoq* soʻzi birinchi qatorida distal, ikkinchi sirada esa klouz graduonim pozitsiyasida ishtirok etadi; yuqoridagi holat umumiy maʼnoda interparallel graduonimiyani namoyon qiladi.

2. Morfologik sathda. Morfologik tizimda darajalanish qadimgi davrlardan beri sifat darajalarida, sifatlarning har xil ozaytirma/kuchaytirma shakllarida ajratilgan va tavsiflangan boʻlib, hind-yevropa tillarida har xil soʻz turkumlarida maʼnoning leksik/morfologik/sintaktik usullarda darajalanishi muammosi boʻyicha Germaniyada H.Yaxnov boshchiligida maxsus guruh ham ish olib borgan, bu masalaga bagʻishlab maxsus katta ilmiy toʻplam ham nashr ettirgan. Oʻzbek tili morfologik tizimida darajalanish masalalarini maxsus oʻrgangan O.Bozorov esa soʻz turkumlari tizimida darajalanishning juda koʻp koʻrinishlarini sanab oʻtadi. Shulardan otlardagi egalik kategoriyasi va uning morfologik shakllari bilan bogʻliq holatlarni tekshiradigan boʻlsak, ularda ham turli-tuman darajalanish qatorlarini kuzatamiz. Jumladan, egalik morfemalari predmetga (umuman egalik qilinadigan narsaga) egalik qilish nuqtayi nazaridan uzoqlik-yaqinlik semasiga koʻra qatorlashadi:

uyim menga tegishli, men shaxsan egaman, yaqin egalik

:


uying senga tegishli, nisbatan uzoq tegishlilik

:

uyi uniki, uzoq egalik

Ingliz tilida egalik kategoriyasini (possessiveness) bevosita egalik morfemalari bilan ifodalash oʻzbek tilidagidek unumli rivojlanmaganligini kuzatamiz [5], yaʼni egalikni ifodalash uchun otning oʻzi (va unga qoʻshiladigan morfemalar)gina emas, egalik maʼnosini yetaklovchi qaratqich olmoshlari faollashuvini koʻramiz: *my house, your house, his/her house...* Garchand bu yerda ham uzoqlik-yaqinlik semasiga koʻra darajalanish (*my* (menga tegishli, men shaxsan egaman, yaqin egalik) ~ *your* (senga tegishli, nisbatan uzoq tegishlilik) ~ *his/her* (uniki, uzoq egalik)ni kuzatsak-da, bu hali tillararo interparallelizm haqida xulosa qilishimiz uchun yetarli emas. Ammo bu masalaga morfologik shakl va grammatik usullar oʻrtasidagi emas, balki grammatik kategoriyaning morfologik sathda ifodalanishi nuqtayi nazaridan qaraydigan boʻlsak, morfologik interparallel darajalanish zanjirlariga ega boʻlamiz, jumladan, quyidagi koʻrinishda:

uzoqlik semasining kuchayishi



yaqinlik semasining kuchayishi

2.1-rasm.

O'zbek va ingliz tillarida egalik kategoriyasida interparallel graduonimiya

Mazkur interparallel gradual zanjirda a'zolarning nisbiy aloqadorligi asosida *uyim-my house, uyi-his/her house* – distal graduonimiyani, *uyim-my house, uying-your house, uyi-his/her house* esa klouz graduonimiyani tashkil qilyapti. Bundan tashqari, yuqoridagi bo'limda tahlil etilgan o'zbek va ingliz tillarida ko'plik grammatik ma'nosini ifodalashdagi interparallelizmni bevosita graduonimik qatorga tizish imkoni ham mavjud. Bunda inparallel vositalar (shakllar va usullar) tillarda unumli rivojlanganlik va ayni kundagi unumdorlik (produktivlik, sinxroniya) darajasiga ko'ra ma'lum ma'noda nisbatlanadi:

produktivlik belgisining pasayishi*produktivlik belgisining kuchayishi*

2.2-rasm.

O'zbek va ingliz tillarida ko'plik grammatik ma'nosini ifodalovchi grammatik usullarda interparallel graduonimiya

Mazkur qatorni *produktivlik belgisining pasayishi/produktivlik belgisining kuchayishiga* ko'ra betaraf birlikni aniqlash bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, *suppletivizm*, o'z-o'zidan, ham pasayish, ham kuchayish jihatdan neytrallikni ifodalaydi, ya'ni unda ko'plik grammatik ma'nosini ifodalash jihatdan potensial *affiksatsiya* va *ichki fleksiyaga* nisbatan o'rtacha miqdorda, deyarli dominant mavqeda. Shu mavqeda olib qaraladigan bo'lsa, *affiksatsiya* hamda *ichki fleksiya* nafaqat distal, balki proksimal graduonimlar sifatida ham anglashiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, distal, proksimal va/yoki klouz interparallel graduonimik munosabatlar morfologik tizimda ham yetarli darajada o'z aksini topadi.

3. Sintaktik sathda. Sintaktik darajalanish o'ta abstrakt, umumiy mohiyat kasb etishini, shuningdek, ingliz va o'zbek tillari grammatik jihatdan ancha farqlanishini hisobga olib, sintaktik sathdagi inparallel/interparallel darajalanish munosabatlari o'ziga xos voqelanishini ko'rish mumkin. Jumladan, gap bo'laklarining gap qurilishidagi mavqeyiga ko'ra:

a) ingliz tilida

Subject ~ Predicate ~ Object ~ Modifier ~ Attribute

b) o'zbek tilida esa

kesim ~ ega ~ to'ldiruvchi ~ hol ~ aniqlovchi

kabi qatorlar ajratiladi.

Xulosa. Lisoniy darajalanish hodisasi obyektiv voqelikda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor, qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi

qonunlarining in'ikosi sifatida til tizimidan, uning fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) va stilistik sathlari tizimidan o'rin olgan ekan, ular turli tillar tizimida ham integral realizatsiyani namoyish etadi va, tabiiyki, bu jarayon interparallel graduonimiya usulida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арипжонова Ш.Ф. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 1996. – 113 б.
2. Веселовский А.Н. Психологический параллелизм и его формы в отражениях поэтического стиля // Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940. – С. 125-129.
3. Жумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. – Т., 2017.
4. Отабоева М.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида феълларда градуонимик қаторлар тузишининг ўзига хос хусусиятлари // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 1. 2022. – P. 925-930.
5. Ширинова Н.Дж. Предметность и качество: от синкретности к дискретности. Научная монография. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2013. – 93 с.
6. Alimova M.X., Xusanova S.B. English theoretical grammar. Textbook for bachelors. – Т., 2025. – P. 55.
7. Carlson K. Parallelism and Prosody in the Processing of Ellipsis Sentences. – London: Routledge, 2002. – P. 4-6.
8. Leech G.N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London-New York: Longman, 1969. – 237 p.
9. Leech G., Short M. Style in fiction: a linguistic introduction to English fictional prose. 2nd ed. – London: Longman, Pearson Education, 2007. – 404 p.
10. Short M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. – London–New York: Longman, 1996. – 385 p.
11. Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar: Filol.fan.nomz. ... diss.avtoref. – Т., 2004. – 23 б.
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
13. <https://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/parallelizm/?q=486&n=1248>